TERMIZ IQTISODIYOT
VA SERVIS
UNIVERSITETI

TISU
TIBBIYOT INNOVATSIYASI

Jurnal tibbiyot olimlari, amaliyotchilar, talabalar va boshqa soha mutaxassislari uchun intellektual platforma yaratib, ilmiy hamkorlik va bilim almashinuvini rivojlantirishga xizmat qiladi.

- Tibbiyot va sog'liqni saqlash sohasida original ilmiy tadqiqotlar.
- Innovatsion yondashuvlarni va fanlararo ishlanmalarni xalqaro miqyosda keng jamoatchilikka yetkazish.
- Inson salomatligini yaxshilashga qaratilgan zamonaviy texnologiyalar va davolash usullarini targ'ib qilish.

https://scientific.tues.uz

Muassis:
TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI

TISU TIBBIYOT INNOVATSIYASI ILMIY JURNALI

Bosh muharrir:
Sattarov Abdusamat Umurqulovich
Bosh muharrir o'rinbosari:
Qobulov Eshbolta Atamuratovich
Mas'ul kotib:
Allamuratov Shuxrat Ashurovich
Dizayner:
Meyliqulov Shahboz Xolmamatovich

Jurnal har chorakda bir marotaba chop etiladi

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2023-yil 1-martdagi № 066379- raqamli guvohnomasi bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal "PRINTWELL" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri Muqimiy ko'chasi, 170/14

Bosishga ruxsat etildi:
27.11. 2025.
Qog'oz bichimi: 60x84 1/8
"Times New Roman" garnitiruasi.
Ofset bosma.
Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i: 11.
Adadi 10 nusxa.
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma № 1.

Jurnalning elektron shakli bilan https://scientific.tues.uz web saytida tanishish mumkin.

Tahririyat manzili:
Surxondaryo viloyati, Termiz sh., "Yulduz" MFY, "Ibn Sino" ko'chasi.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Jumayev Mamaziyo Yusupovich – Tibbiyot fanlari doktori. Ro'ziyev Oybek Avlayevich – Tibbiyot fanlari falsafa doktori
Xaitov Akmal Aliyarovich – Tibbiyot fanlari falsafa doktori
Ochilova Dilorom Abdukarimovna – Tibbiyot fanlari falsafa doktori
Kurbanov To'ktash Alimovich – Tibbiyot fanlari falsafa doktori
Sultonov Ravshan Komiljonovich – Tibbiyot fanlari falsafa doktori
Xudaykulov Babakul Karjovovich – Tibbiyot fanlari nomzodi

MUNDARIJA

R.K.SULTONOV, M.A.KIBRIYEVA
Erta bolalik davrida covid-19 bilan kasallangan bolalarda kasallikni klinik va immunologik xususiyatlarini baholash.....3

N.Q.ABDUSAMIYEVA
Surunkali nospesifik servisitda qin mikrobiotsenozi va mahalliy immunitet holatining roli va kasallikning erta profilaktikasi.....7

SH.O'.AMINQULOV, M.SH.RAXIMOVA
Qandli diabetda ichki a'zolarning zararlanishi va klinik ko'rinishlari.....11

U.X.AXMEDOV
Sifilis kasalligida moyakning morfologik o'zgarishining o'ziga xosligi.....16

E.R.BEKMIRZAYEV
Eksperimental ichaklardagi chandiqli jarayonlarning gormonal terapiyasidan keyingi prostata bezi morfometrik ko'rsatkichlari.....19

K.U.BEKMIRZAYEV , K.O'.TOSHBOYEVA
Yurak yetishmovchiligi: patogenez, klinik belgilar va zamonaviy davolash usullari.....23

M.BO'RIYEV , K.O'.TOSHBOYEVA
Gepatit b virusi patogenezida jigar hujayralarida kechadigan o'zgarishlar.....29

CH.X.CHORSHANBIYEV
Zamonaviy tibbiyot nuqtai nazaridan aholida kuzatilayotgan miokard infarktning sabablari, davolash yo'llari va bugungi kundagi dolzarbligi.....34

G.R.IBROHIMOVA
Stress gormonlari (kortizol va adrenalin) va ularning fiziologik ta'siri.....37

M.R.ISMOILOVA, D.A.XURMATOVA
Homiladorlik vaqtida patalogik vazn ortishi: Akusherlik va perinatal asoratlar.....41

I.I.XOLMURODOV, Z.N.MAMADIYEVA
Oq qon kasalligi yoki leykimiya.....46

G.N.MAMADALIYEVA, N.A.XOLBOYEV
O'tkir obstruktiv bronxit bilan og'rigan bolalarda immunoglobulin nisbatlarini aniqlash.....54

D.A.XURMATOVA, SH.U.PARDAYEVA
Ko'p xomilali homiladorlik va tug'ruqning xususiyatlari.....57

O.A.RUZIYEV, D.A.OCHILOVA
Endotelial disfunksiya- kardiovaskulyar kasalliklar patogenezining markaziy bo'g'ini sifatida (adabiyotlar sharhi).....62

SH.J.QAYUMOVA
Ayollarda bepushtlik sabablari va zamonaviy davolash usullari.....70

N.CH.RAXMONOV, K.O'.TOSHBOYEVA
Virusli gepatit b va c: klinik kechish, tashxis va davolash strategiyalari.....81

J.B.SAIDOV, K.O'.TOSHBOYEVA
Oshqozon va ichak kasalliklarida klinik ko'rinish va diagnostik yondashuvlar.....85

X.SH.SAIDOV
Surunkali brutsellyoz bilan kasallangan bemorlarda yurak-qon tomir tizimidagi funktsional o'zgarishlar 89

D.A.OCHILOVA, S.A.HUSANOV
Metabolik sindrom: epidemiologik holat, diagnostika va profilaktika muammolariga zamonaviy qarashlar.....95

O.I.SHAYMARDANOV
Allergik rinit.....100

X.F.SHERMATOV, A.A.ESHMURZAEVA
Osteoartritda trombospondinli disintegrin va metalloproteinaza negizida bo'g'im tog'ayi destruksiyalanishi va uning klinik xususiyatlari.....103

S.N.SULTONOV
O'rik danagidan payvandtaglar yetishtirish va ularni parvarish qilishning agrotexnik asoslari.....106

YU.M.JUMAYEV, X.A.XALILOVA, O.X.NORMO'MINOV, M.NORTO'RAYEV
Surunkali buyrak yetishmovchiligi: patogenez, klinik kechish va davolash tamoyillari.....109

K.U.TO'RAKULOVA, J.B.ABDUMUROTOVA
Bezgakning bolalarga ta'siri: oqibatlari, davolash usullari va profilaktik choralari.....113

T.A.TOSHPULATOV, X.E.TURAYEV, J.M.ASHUROV
Biologik faol birikmalarning metallokomplekslari.....117

Q.N.TURSUNOV , I.I.XOLMURODOV
O'tkir respirator kasalliklar: mikrobiologik etiologiya va diagnostika yondashuvlari.....121

A.A.XAITOV, Z.K.XALBAYEVA
Alloplastikadan keyin infektsion asoratlarini davolashda manfiy bosimning samaradorligi.....125

M.R.XOLLIYEVA , M.SH.YUSUPOVA
Ai va tibbiyot: sun'iy intelektning tibbiyotdagi yangi davri.....130

A.M.XOLMATOVA, Z.R.XUDOYQULOVA
Bolalar bosh miya insultining etiologik omillarining yoshga xos xususiyatlari.....134

A.A.XAITOV , Z.K.XALBAYEVA
Keksa yoshdagi bemorlarda to'g'ri ichak prolapsida delorme operatsiyasining afzalliklari 134

M.Q.PO'LATOV
Gomosistein va meteorologik omillarning insultgacha bo'lgan serebrovaskulyar kasalliklar rivojlanishiga ta'siri 137

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi
Shaymardanov Olim Igamuratovich
E-mail: sajmardanovolimzon40@gmail.com

ALLERGIK RINIT

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada allergik rinitning kelib chiqish sabablari, epidemiologiyasi, klinik belgilari, tashxislash usullari hamda zamonaviy davolash yondashuvlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida O'zbekiston sharoitida uchraydigan asosiy allergen turlari aniqlanib, bemorlarda kasallikning og'irlik darajasi va allergen bilan bog'liqligi o'rganildi. Allergik rinitning erta tashxisi va individual terapiya tanlashning ahamiyati yoritilgan.
Kalit so'zlar: allergik rinit, immunoglobulin E, allergen, tashxis, antihistamin, immunoterapiya.

АННОТАЦИЯ

This article analyzes the causes, epidemiology, clinical features, diagnostic methods, and modern treatment approaches of allergic rhinitis. The study identifies the main types of allergens common in Uzbekistan and examines the relationship between disease severity and allergen exposure. The importance of early diagnosis and individualized therapy in the management of allergic rhinitis is highlighted.
Keywords: allergic rhinitis, immunoglobulin E, allergen, diagnosis, antihistamines, immunotherapy

ABSTRACT

В данной статье рассмотрены причины возникновения, эпидемиология, клинические проявления, методы диагностики и современные подходы к лечению аллергического ринита. В ходе исследования выявлены основные типы аллергенов, характерные для условий Узбекистана, и изучена зависимость между тяжестью заболевания и воздействием аллергенов. Подчёркнута важность ранней диагностики и индивидуального подбора терапии.
Ключевые слова: аллергический ринит, иммуноглобулин Е, аллерген, диагностика, антигистаминные препараты, иммунотерапия.

KIRISH

Allergik rinit (AR) — bu burun shilliq qavatining atrof-muhitdagi allergenlarga nisbatan IgE vositachiligida kechuvchi yallig'lanish kasalligi bo'lib, burun oqishi, aksirish, qichishish va burun bitishi kabi simptomlar bilan namoyon bo'ladi. So'nggi yillarda ushbu kasallik nafaqat rivojlangan mamlakatlarda, balki O'zbekiston kabi iqlimi xilma-xil hududlarda ham tez-tez uchramoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholining 10–30 foizigacha bo'lgan qismi turli darajadagi allergik rinitdan aziyat chekadi. Allergik rinitning rivojlanishida genetik moyillik, ekologik omillar, havoning ifloslanishi, uy changkanalari, hayvon tuklari, gulchang va mog'or zamburug'lari kabi allergenlarning o'rni muhimdir. Shu bilan birga, zamonaviy urbanizatsiya, noto'g'ri ovqatlanish, stress va iqlim o'zgarishlari ham immun tizimning disbalansiga olib kelib, allergik kasalliklarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Kasallikning erta aniqlanmasligi va noto'g'ri davolash usullarining qo'llanilishi ARning surunkali shaklga o'tishiga, sinusit, otit, bronxial astma kabi asoratlar rivojlanishiga olib keladi. Shu sababli, allergik rinitni erta tashxislash, bemorlarning shaxsiy allergen xaritasini aniqlash va individual davolash yondashuvlarini qo'llash bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur tadqiqotning maqsadi — O'zbekiston sharoitida allergik rinitning klinik kechishi, asosiy allergen turlari, tashxis va davolash usullarining samaradorligini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot materiali va usullari

Tadqiqot 2023–2024-yillar davomida Toshkent shahar Allergologiya markazining ambulator va statsionar bo'limlarida o'tkazildi. Umumiy hisobda 120 nafar bemor (65 nafari ayol, 55 nafari erkak) klinik kuzatuvga olindi. Tadqiqot ishtirokchilarining yoshi 8 dan 55 yoshgacha bo'lib, ularning barchasida klinik va laborator tekshiruvlar asosida allergik rinit tashxisi qo'yilgan. Tadqiqotga quyidagi mezonlarga javob beruvchi shaxslar kiritildi: Klinik simptomlar (burun bitishi, oqishi, qichishish, aksirish) mavjudligi; Allergologik testlar (teriga qo'llaniladigan prik-

testlar yoki IgE darajasi aniqlangan); Kamida bir yil davomida takrorlanib turgan simptomlar. Istisno mezonlariga surunkali sinusit, burun polipozi, bronxial astma, autoimmun kasalliklar va immun tizimi yetishmovchiligi bo'lgan bemorlar kiritilmadi. Tadqiqot klinik, laborator va instrumental usullar orqali olib borildi: Klinik baholash: bemorlarning shikoyatlari, kasallik tarixi va simptomlarning davomiyligi aniqlanib, ARIA (Allergic Rhinitis and its Impact on Asthma) tasnifi asosida yengil, o'rta va og'ir shakllarga ajratildi. Laborator tahlillar: umumiy va maxsus IgE darajalari immunoferment tahlil (ELISA) usulida baholandi. Allergologik tekshiruv: teri prik-testlari yordamida chang, gulchang, hayvon tuklari, maishiy changkana, mog'or kabi allergenlarga sezuvchanlik o'rganildi. Instrumental usullar: rinoskopiya orqali burun shilliq qavatining holati, shish darajasi va sekretsiya ko'rinishi baholandi. Statistik tahlil: olingan ma'lumotlar "SPSS 25.0" dasturida qayta ishlanib, o'rtacha qiymat, foiz ko'rsatkichlari va ishonch oralig'i aniqlanib, $p < 0,05$ darajasi statistik ahamiyatli deb qabul qilindi. Tadqiqot O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimida amal qiluvchi bioetik me'yorlarga to'liq mos ravishda o'tkazildi. Barcha ishtirokchilardan yozma rozilik olingan.

Natijalar

Tadqiqot natijalariga ko'ra, 120 nafar bemor orasida allergik rinitning uchrash chastotasi yosh va jins bo'yicha farqlandi. Bemorlarning 54,2 foizi 18 yoshgacha bo'lgan bolalar, 45,8 foizi esa kattalar edi. Jinsiy tarkib bo'yicha ayollar 54,2 %, erkaklar esa 45,8 % ni tashkil etdi. Kasallik shakllari va og'irlik darajasi ARIA tasnifiga muvofiq, ishtirokchilarning: 38 nafarida (31,7%) yengil davriy shakl, 52 nafarida (43,3%) o'rta og'irlikdagi surunkali, 30 nafarida (25%) og'ir surunkali shakl aniqlangan. Og'ir kechuvchi hollarda bemorlar orasida burun bitishi, kechasi uxlashda qiyinchilik, bosh og'rishi va charchoq simptomlari ko'proq qayd etildi. Shu guruhda aksariyat bemorlarda kon'yunktivit, sinusit yoki astmatik simptomlar kuzatildi. Allergen turlari bo'yicha sezuvchanlik Prik-testlar natijasida aniqlanishicha, allergenlar quyidagi tartibda ustunlik qilgan:

1. Uy changkanasi — 64,1%;
2. Gulchang (pollen) — 52,5%;
3. Hayvon tuklari — 37,5%;
4. Mog'or zamburug'lari — 24,1%;
5. Oziq-ovqat allergenlari — 18,3%.

Bir necha turdagi allergenlarga bir vaqtda sezuvchanlik (poliallergiya) 46 nafar bemorda (38,3%) kuzatildi. Ayniqsa, changkana va gulchang birikmasi bilan sezuvchanlik holatlari ko'p uchradi. Umumiy IgE darajasi o'rtacha 224±18 IU/ml ni tashkil etdi (normal chegaragacha 100 IU/ml). Maxsus IgE eng yuqori ko'rsatkichlarini uy changkanalari (56%) va o'simlik gulchanglariga (48%) nisbatan namoyon etdi. Qon tahlillarida 78 nafar bemorda (65%) eozinofiliya aniqlangan bo'lib, ularning 22% da og'ir kechuvchi simptomlar bilan moslik kuzatildi. Antihistamin preparatlar (loratadin, cetirizin) bilan 14 kunlik standart terapiya natijasida simptomlar 67% bemorlarda sezilarli kamaydi. Mahalliy kortikosteroid spreyi (mometazon furoat) bilan qo'shma davolash o'tkazilgan 35 nafar bemorda burun bitishi va oqma belgilarining o'rtacha 82% gacha kamaygani kuzatildi. Immunoterapiya kursini olgan 12 bemorda 6 oydan so'ng qaytalanish chastotasi 40% gacha kamaygan. Statistik tahlil bemorlarning umumiy IgE darajasi bilan simptom og'irligi o'rtasida o'rta darajadagi ijobiy korrelyatsiya mavjudligini ($r = 0,56$; $p < 0,01$) ko'rsatdi. Shuningdek, poliallergik bemorlarda klinik kechish yakkalangan allergenli bemorlarga qaraganda 1,8 baravar og'irroq bo'lishi aniqlandi ($p < 0,05$).

Muhokama

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida allergik rinitning O'zbekiston sharoitida keng tarqalganligi, ayniqsa bolalar va o'smirlar orasida yuqori uchrash darajasi aniqlandi. Bu holat irsiy moyillik, ekologik omillar, havo ifloslanishi va mintaqadagi chang-allergenlarning ko'pligi bilan izohlanadi. Uy changkanalari va gulchang allergenlariga sezuvchanlik ustunligi mintaqaning iqlimiy xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Laborator tahlillar natijasida bemorlarda umumiy IgE darajasining oshishi va eozinofiliya mavjudligi aniqlanib, bu ARning immun mexanizmlar asosida kechishini tasdiqlaydi. Klinik jihatdan esa, burun bitishi, oqma va qichishish simptomlari eng ko'p uchraydigan belgilar bo'ldi. Davolashda antihistamin preparatlar simptomlarni qisqa muddatda kamaytirgan bo'lsa, mahalliy kortikosteroidlar bilan kombinatsiyalangan yondashuv yanada samarali natija berdi. Immunoterapiya esa uzoq muddatli barqaror remissiyani ta'minlagani bilan ahamiyatli bo'ldi. Ushbu natijalar xalqaro ARIA (Allergic Rhinitis and its Impact on Asthma) ko'rsatmalariga mos keladi.

Xulosa

Allergik rinit O‘zbekiston aholisi orasida keng tarqalgan surunkali kasallik bo‘lib, asosan bolalar va o‘smirlar orasida ko‘p uchraydi. Kasallikning rivojlanishida uy changkanalari va gulchang allergenlari yetakchi o‘rin tutadi. Laborator tahlillarda IgE darajasining oshishi va eozinofiliya mavjudligi kasallikning immun tabiati bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Davolashda antihistamin va mahalliy kortikosteroidlar kombinatsiyasi simptomlarni samarali kamaytiradi, immunoterapiya esa uzoq muddatli natija beradi. Shuning uchun allergik rinitni erta tashxislash, allergen manbalarini aniqlash va individual davolash strategiyasini tanlash kasallik asoratlarining oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. World Health Organization. Allergic Rhinitis and its Impact on Asthma (ARIA) Guidelines Update 2023. Geneva: WHO, 2023.
2. Pawankar R., Canonica G. W., Holgate S. T., Lockey R. F. Allergic Rhinitis and Related Disorders. Allergy Journal, 2022; 77(4): 1021–1032.
3. Meltzer E. O., Blaiss M. S. Current approaches to management of allergic rhinitis. Annals of Allergy, Asthma & Immunology, 2020; 124(2): 133–140.
4. Omonov Sh., Yusupova N. Allergik kasalliklarning klinik tashxisi va davosi. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2021.
5. Bousquet J., Khaltaev N. Global Allergy Report 2021. World Allergy Organization Journal, 2021; 14(5): 118–126.
6. Sadykova D., To‘rayev A. O‘zbekiston sharoitida allergik kasalliklarning epidemiologiyasi. Tibbiyot jurnali, 2022; 2(3): 45–50.
7. Greiner A. N., Hellings P. W. Allergic Rhinitis. The Lancet, 2019; 394(10196): 64–75.
8. Akramova M. Allergik rinitni davolashda immunoterapiya samaradorligi. Respublika tibbiyoti axborotnomasi, 2023; 5(1): 22–27.